

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti

Fakulteti: Tabiiy fanlar
Kafedrası: «Fiziologiya genetika va biokimyo»
Fan: Odam va hayvonlar fiziologiyasi

REFERAT

Mavzu: Odamning paydo bo'lishi

Bajardi: Saidova N
Tekshirdi: Haydarov S.S

Samarqand-2015

Reja:

- 1. Kirish.**
- 2. Biologiya fani uning metodlari.**
- 3. Biologiya fani muammolari.**
- 4. Tirik organizm va odamning paydo bo'lishi.**
- 5. Poleontologiya dalillari.**
- 6. Xulosa.**
- 7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

KIRISH. Insoniyat paydo bo'libdiki, yer yuzidagi jonli va jonsiz tabiatdan foydalanib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda uni o'ziga bo'ysundirgan yoki buysundirib kelmoqda. Tabiatdagi barcha mavjudodlar, boshqacha aytganda Yer yuzidagi nabotot alomi yoki flora va fauna qanday yuzaga kelganligi, nega tabiat unsurlarga birikkanligi insoniyatni azaldan qiziqtirib kelgan. Insoniyat tabiat sirlarini ochishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo'ldan bormoqda. Fan-texnika taraqqiy etgan bizning davrda tabiat sirlarining ancha – munchasi o'rganilgan, olimlar tomonidan ochib berilgan, ammo hali o'rganilmagan, ochilmagan jumboqlar ancha.

Fan, ilm rivojlanib borar ekan Yer yuzidagi mavjudodlarning paydo bo'lishi, ularning o'sishi, ko'payishi va rivojlanish sirlari ochib borilmoqda. E.H.T.larining yaratilishi esa turli modellar yaratib xona ichida organizmlarni o'rganish imkon bermoqda.


Xususan, biologik fanlar bu masallar bilan kengroq shugullanadi, shunga kura fanning uziga yarasha muammolari, ilmiy-tadkikot usullari borki, ular tabiat sirlarini ochishda uni urganishda azaldan kul kelmoqda.

Biologiyaning ilmiy-tadkikot metodlari:

1. kuzatish metodi-organizmlar va uning atrofidagi muxitda ruy beradigan xodisalarni tasvirlash va taxlil kilish imkonini beradi. Bu metod biologiya fanining ilk rivojlanish davrida keng kullanilgan;
2. takkoslash metodi- turli sistematik guruxlar, tirik organizm, ularning tarkibiy kismlaridagi uxshashlik va farklar takkoslanadi;
3. tarixiy metod- turli sistematik guruhlar, organizm, ular organlarining tarixiy jarayonda paydo berish konuniyatlarini urganadi;
4. eksperimental metod-tirik tabiatdagi, organizmlardagi vokea-xodisalarni chukur urganadi;
5. madaniylashtirish metodi- tirik tabiatdagi biror vokea-xodisalar yoki uning muxim jixatlarini model tarzida kayta tiklab urganiladi.


Biologiyaning bunday ilmiy-tekshirish metodlarining mavjudligi bilan birga uziga yarasha muammolari xam bor. Bu muammolar, birinchidan molekulalarning tuzilishi va funksiyasini aniklash; ikkinchidan bir va kup xujayrali organizmlarning rivojlanishini tartibga solish, uning mexanizmlarini bilish, uchinchidan organizm shaxsiy rivojlanishidagi irsiyat mexanizmlari, ya'ni oqsil biosintezidan xujayra xosil bulgunga kadar tabakalanishni oydinlashtirish; turtinchidan, organizm tarixiy rivojlanishini aniklash; beshinchidan, Yerdaxayotning paydo bulish muammosini yechish va tajribada isbotlash; oltingichidan, insonlarning tabiatga kursatadigan ijobiy va salbiy ta'sirini bilish; yettinchidan, odamning paydo bulishi bilan boglik bulgan ba'zi muammolarni xal etishdan iborat.

Biologiya fanidagi oxirgi bu muammo nafaqat biologiya fani, balki umum fanlar muammosi, tugrirok aytganda jumbokdir. Bu jumbokni ochish va uni urganishda biologiya fani, evolyusion ta'limot, genetika, anatomiya, poliontologiya kabi fanlar bilan, jumladan tarix bilan chambarchas boglik xolda izlanishlar, tadkikotlar olib boradi. Xush, odam kanday kelib chikkan?



Odam

kanday paydo bulgan? Quyida shunga to'xtalib o'tamiz.



Odamning paydo bo'lishi-antropogenezda rol o'ynagan omillar nimalardan iborat? degan savol tugilishi tabiiy. Darwin organik olam evolyusiyasining asosiy omillari irsiyat, o'zgaruvchanlik, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanishni odam evolyusiyasiga tatbiq etish mumkinligini kursatib utdi.

Odamning paydo bulishida biologik omillar katta ahamiyatga ega bulsa-da, birok ularning uzigina antropogenezi tushuntirish uchun yetarli emas. Bu jarayonda biologik omillar bilan bir ktorda ijtimoiy omillar xam muxim rol uynaydi.

Maymunlar birdaniga tik yura boshlagan emaslar, atrof-muxitning uzgarishi-urmon sharoitidan ochik yerda yashashga utish tufayli ayrim maymunlarda paydo bulgan mutasion uzgaruvchanlik-tik yurishga birmuncha layokatli bulish, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish orkali million yillar mobaynida saklanib, takomillashib borgan. Tik yurish natijasida odamsimon maymunlarning xarakatlanish darajasi cheklanib kolgan.

Dumgaza suyaklar birlashib xarakatlanmaydigan xolga utgan. Bu esa tugishni birmuncha kiyinlashtirgan bulsa-da, tik yurishga utish odamsimon maymunlarda uzokdan xavf-xatarni kura bilish, kurol ushlashga xizmat kiluvchi kullarining ozod bulishiga imkon yaratgan.

Maymunning odamga aylanish jarayonida jamoa bulib yashash ham muxim axamiyat kasb etgan. Xar kanday kurolga ega bulgan ayrim individ yirtkich xayvonlar xujumiga bardosh bera olmas edi. Shu sababli eng kadimgi odamlar jamoa bulib yashay boshlaganlar. Shu yusinda ular yirtkich xayvonlardan ximoyalanganlar, ov kilganlar, yosh bolalarni tarbiyalaganlar. Jamoaning kattalari yosh a'zolarini kurol esashga, ov kilish usullariga, olovni saklashga, yemishli usimlik va xayvonlarni kidirib topishga urgatganlar.

Mexnat jarayonining rivojlanishi bilan uzaro kumaklashish foydali ekanligi tobora oydinlasha borgan. tabiatni bilish buyicha tuplangan tajriba avloddan-avlodga berilib, takomillashib borgan. jamoa bulib yashash odamlarni bir-biri bilan tovush, imo-ishora va mimika orkali munosabatda bulish imkonini bergan.

Ajdodlarimizning dastlabki suzlari mexnat operasialari bilan boglik bulgan. bora-bora maymunlarning rivojlanmagan xikildogi va ogiz apparati irsiy uzgaruvchanlik, tabiiy tanlanish natijasida odamning nutk organiga aylangan.

Odamning kelib chikishi. Odamning kelib chikishi masalasi ustida olimlar bir necha yuz yillardan beri tadkikot olib boradilar, bu masala buyicha turli nutai-nazarlar mavjud bulib, lekin ularning ba'zilar uz isbotini xali topganicha yuk. Odamning kelib chikish va rivojlanishi jarayoni tarix fanida Antropogenez-yunoncha "antropos"-odam, "genezis"- rivojlanish deb yuritiladi.

Odamning kelib chikishi, kishilik jamiyatining paydo bulishi, uning rivojlanishi va tarakkiyoti tugrisida fanga turli xil yondoshuvlar, karashlar mavdjud. Biz ularni 2 ga bulib urganamiz.

1. Diniy karash.
2. Dunyoviy karashdir.

Biz yashab turgan moddiy dunyo azaldan bulganmi? Yerdan xayot kachon paydo bulgan, odam paydo bulgan kabi masalalarda diniy va ilmiy adabiyot bir-

birini inkor etuvchi xulosalar bilan yondoshadi. Yakka xududiylik goyasini ilgari suruvchilar dunyodagi barcha dinlar, biz yashab turgan xayotdagi barcha borlikni, odamzotning uzini xam xudoyi-taolo tomonidan yaratilganligini bashorat kiladi. Jumladan: Bibliyada odamni xudo yetti ming yil avval “kizil loydan” yaratganligi ta’kidlanadi.

Bu goya Quroni Karimda xam uz aksini topgan. Islom dini goyasi rivoyatlariga karaganda “Xudoyi taolo kudrat kuchi bilan tuproqni xamir kilib Odamning shaklini yasab “unga kirk kun bulganda jon beradi”.

Momo Xavoni esa odam Atoning “chap (kovurgasidan)” yaratgan. Kishilik jamiyati Odam Ato va Momo xavodan tarkalgan emish, odam Allayxisalom bir yuz kirk yosh umr kuribdilar. Bu davr mobaynida Odam Ato va Momo xavodan 41 farzand dunyoga kelibdi.

Odamzodning birinchi vakili Kuroni karimda Odam Ato va Momo Xavo, “Bibliya” da Adam va Yeva, Zardushtiylik dinida esa Iyim nomlari ostida beriladi.

Shunday ekan dunyoviy bilim ham diniy bilimlar ham o’z nuktai-nazarlarini ilgari suradilar. Diniy ta’limot karashlarini xurmat kilgan xolda fanda odamning paydo bulishi xakida evolyusion ta’limot mavjudligini aytib o’tmoqchiman.

Ayniqsa hozirgi vaqtda antropogenez mavzusi ko’pdan-ko’p yangi fikr muloxazalar bilan boglangan.

Masalan, kurinmas odam yoki boshka koinotdagi odamlarning yer yuzida tarkalishi bu nazariyalarning kupgina tarafdorlari bor va ularni butunlay inkor kilib bulmaydi, ammo turli xil ta’limotlarni tasdiklash uchun anik isbotlar takliflar etish lozim.

Insoniyatning dastlabki vakillarining qazilma qoldiqlari 1959 yilda Amerikalik olimlar tomonidan Sharqiy Afrikadagi Olduvay daryosida topilgan.

Bu odam koldiklari Tanzaniyaning Zinj nomli qishlog’idan tonilgani uchun uni shu nom bilan Zinjan Trop odami deb ataladi.

Bu yerda odam suyaklari bilan birga har xil hayvonlarning antiqa suyaklari va tosh qurollar ham topiladi. Zinjanthrop topilgan biologik qatlamning sanasi 1,5 – 2 million yil deb taxmin qilinmoqda. Indoneziyadagi Yava orolida 1890 yil eng

kadimgi odam suyagining qoldirlari topilgan bo'lib, uni ptekanthrop deb nomlaganlar. Yunoncha maymun odam demakdir.

Xitoyning Pekin shahri yaqinida topilgan odam suyagi qoldirlari joy nomi bilan atalib, sinomthrop Xitoy odami deb nomlangan. Sinatroplar o'tkir qirrali tosh qirollardan va tabiiy olovdan foydalanganlar.

"Ishbilarmon odam" larning vakillari bo'lgan zinjanthrop va avstrolopitek (lotincha janub odami) bundan 3-2 million yillar oldin yashaganlar. Ptiokanthrop miloddan 700-600 million yillar, snthrop esa 600-500 million yillar ilgari yashagan. Ular ilk paleolit davri odamlari deb hisoblanadi.

Zinjanthrop avstrolopiteklar oilasining eng kadimgi vakili hisoblanadi, olimlar unga "Xomaxabilis" ish-bilarmon odam deb nom berilgan va u eng sodda mehnat kurollari yasay olgan.

Zinjanthrop, ptekanthrop va sinantropilar ilk toshlari ildiz utgan eng kadimgi odamlar rivojlanishini boskichlari xisoblanadi.

Ular kaddini tik tutib yurganlar. Mehnat kurollarini yasab ishlata olganlar. Bu xol ularni xayvonot dunyosidan ajratib turgan. Sinatroplar ptiokanthroplarga karaganda murakkabroq mehnat kuroli yasay bilganlar. Buning ustiga tabiiy oatdan xam foydalanganlar. Ming yillar davomida odamning tashki kiyofasi, miya xajmi uzgargan.

Yer yuzi ob-xavosi ilik bulganda odamlar manzillarda yangi anxor buyidagi tepaliklarda joylashgan ob-xavoning keskin uzgarishi ilk paleolitning sunggi davrlarida yer yuzi buyuk muzlik bilan kolanganda odamlar yangi sharoitga moslashishga majbur buladigan.

Bu xol xam ularni tashki kiyofasiga uzgarish kiritgan.

Urta paleolit davrida millotdan avval 100-40 ming yilliklar davrida yashagan odamlarni ptekanthropilar deb atalgan. Ularini suyak koldiklari dastlab Germaniyadan Neandertal vodiysidan topilgani uchun shu joy nomi bilan atalgan.

Neandertallar yashash uchun gurlarni uzlashtiradilar. Nayza uchlarini yasaydilar, o'zlariga xayvon terisidan kiyim kiladilar, olovdan foydlanadilar. Mamont va boshka yirik muzlik davri xayvonlarini ovlaydilar.

Neandertallar xozirgi kiyofadagi odamlarga utish boskichidir. Kromonyon Fransiya goridan topilgan odam suyaklari uning sunggi paleolit millioddan avvalgi 40-12 ming yilliklar davrida yashagani va jismonan xozirgi kiyofadagi odamlardan fark kilganligi ma'lum.

O'zbekiston hududida eng kadimgi odamlar ilk paleolit davrida taxminan 700-500 ming yillar oldin paydo bulgan olimlarning taxminicha O'zbekiston xududida yashagan eng kadimgi odamlar Janubiy Sharkiy va Sharkiy Osiyoning eng kadimgi odamlari bulishi sinatroplar-Xitoy odamga yakin karindosh urugdan bulganlar.

O'zbekiston hududida eng kadimgi odam Fargona vodiysida Selungur manzilidan va Toshkent vodiysining kul bulok mavzusidan Angren shaxri yakinidan topilgan. Kupol tosh kurollari bulib, bir tomoni kertib utkirlashtirilgan bulgan. Ilk paleolit davri odamlari kichik daryo buylari va buloklar buyida o'zlariga makon kurganlar.

O'sha davrlarda iqlim issiq bo'lganidan kishilar bosh pana –turar joy va kiyimga extiyoj bo'lmagan.

Insoniyatni rivojlanishida neandertal odamning o'zi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ta'kidlab o'tganimizdek, 1956 yilda Germaniyaning Dyussel Dorf shaxri yakinidagi neandertal goridagi yer kazish ishlari vaktida tasodifan bosh suyak kopkogi va odam skeletining bir necha suyaklari topilib, shu yer nomi bilan ataladi. Bu skelet barcha kazilma odamlarining eng avvalgisi bulib, o'z vaqtida olimlar orasida kuchli baxslarga sabab bo'ldi.

O'sha vaqtdagi mashhur nemis olimi, Orientologi Verxov skeletning topilgan bo'laklari iptidoiy odamga tegishli bo'lmay balki hozirgi zamon odamiga tegishli deb e'lon kildi va suyaklarning tuzilish xususiyatlarini esa alkogolizm va zaxm kasalligi okibatida deb tushuntirdi. Lekin bu topilmalardan keyin odamning fakat aloxida kismigina emas, balki butun skeletlari, shuningdek kup marta tosh kurollari, kul koldiklari va shular bilan bir katorda kishilik faoliyati bilan boglik bir kancha topilmalar birin-ketin topilaverdi.

Hozir neandertal deb atalgan bu kazilma odam yuqorida aytib o'tilgan o'tmishdagi odamlar singari yagona topilma emas: hozirgi vaqtda Yevropaning

kup yerlarida, Janubiy Afrikada “Rodeziya odami” va “Afrikantrop” Falastinda Yava Orolida pitekantropalar topilgan joyda: Yavantrop va boshqa yerlarda xam ularning yashaganligi aniklandi. Krimda Sinferopol shaxridan 25 km sharkrokda Kiyikkoba goridan 1924 yilda G.A.Bonch – Osmolovskiy tomonidan topilgan.

O'zbekistonda topilgan teshik tosh goridan 1938 yilda O.P. Okladnikov tomonidan Muste tipi deb ataladigan juda sodda tosh kurollar bilan 8-10 yashar bolaning suyagi topilgan. (keyinchalik uning shogirdi Alekseyev tomonidan bu suyak ayol kishiga tegishli ekanligi aniklangan).

Shuni kursatib utish mumkinki, g'ordagi neandertallarning alohida topilgan indevidlari yuqorida ko'rganimizdek, juda keng maydonga tarkalgan bo'lib, ular o'zaro bir-biridan farq qilsa ham ularning hammasi bir odamning turidir.

Qadimgi kishilarning yuqorida kursatib utilgan vakillari odamsimon maymunlarga xos bo'lgan belgilardan asta-sekin uzoqlashib, hozirgi zamon odami tipiga yaqinlashgan: tik yurish takomillashgan, ko'z kosasi usti kavarik, iyak rivojlangan, peshona tekislangan va boshkalar, lekin yeng ko'zga tashlanadigan narsa miyaning rivojlanishi natijasida bosh suyak hajmining kattalashishi bo'ldi. Hozirgi zamon yirik adashsimonlarning, kazilma odamlar va hozirgi zamon odamlari kalla suyaklarining katta kichikligini bilish uchun mavjud ma'lumotlarni solishtirilsa, quyidagilar ma'lum bo'ldi.

Gorilla 600 dan to 685 sm³ gacha.

Pitekantrop 800 dan to 900 sm³

Sinantrop 1000 dan to 110 sm³

Neandertal 110 dan to 1600 sm³

Hozirgi zamon odami 1200-1700 sm³.

Sinantrop va Neandertal odamlarning qoldiqlari bilan birga ularning mehnat faoliyatlarining izlari, xususan, juda sodda tosh kurollar topilgan. Arxeologik kazilmalar ichidan topilgan iptidoiy jamiyat davriga mansub bo'lgan moddiy madaniyat yodgorliklarining o'zi anchagina oldin bu taxminan kazilma odam topilgan davrlar ya'ni, 20 asr o'rtalaridan boshlangan va tinmay o'zgarib

borayotgan arxeologik moddiy madaniyatning eng kadimgi tarakkiyoti xakida yetarli darajada anik ma'lumotlar beradi.

Yer yuzining kattagina kismiga tarkala boshlagan paleantropalar –yangi neandertallar shu xilma-xil tabiiy sharoit va ijtimoiy mehnat jarayoni natijasida asta-sekinlik bilan rivojlanishda davom etdilar.

Okibatda hozirgi jismoniy tipdagi “Yangi odam” neantrop darajasigacha yetib kelguncha katta tarixiy davrni bosib o'tdilar. Neandertallar o'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan eng kadimgi va kadimgi odamlardan sifat jihatdan tubdan farq qiladilar.

Shuning uchun xam uni “aql idrokli” odam – hom sapiens, deb ataganlar. Ular o'zlarining tashqi kiyofasi jihatidan hozirgi zamon odamlariga juda o'xshab ketadilar. Mutaxassislarning fikricha neandertallar bundan 40-35 ming yil mukaddam sungi tosh asrining boshlarida paydo bo'lgan va dastlabki eski dunyo buylab keng tarkala boshlaganlar.

Ularning skeletlari, suyak parchalari, moddiy-madaniy qoldiqlari Afrika, Yevropa va Osiyoning kurgina joylaridan topilgan.

“Aql-idrokli” deb atalgan odamlar, dastlab O'rta yer, Kora, Kasbiy dengiz va unga tutash bo'lgan joylarda yashagan bo'lib, shu yerdan Markaziy Sharqiy, Janubiy-Sharqiy Osiyoga, Sharqiy-Janubiy Afrikaga, G'arbiy va Janubiy Yevropaga tarkalganlar.

Neantropalar tarkalgan joylar shartli ravishda quyidagi geografik o'lkalarga bo'linadi.

1. Yevropa muzlik o'lkasi.
2. O'rta yer dengiz o'lkasi.
3. Janubiy Afrika o'lkasi.
4. Sibir-mugul o'lkasi.
5. Xind-ximolay o'lkasi.
6. Malaya pravinsiyasi-(Janubiy Xitoy,Xind Xitoy yarim oroli va uning atroflari) o'lkasi.

Mazkur joylardan neandertallar yashagan juda ko'plab manzilgoxlar. Bu manzilgoxlardan esa ular koldirilgan moddiy madaniy koldiklar va usha madaniyatni yaratgan kishilarning yuksak koldiklari, butun-butun skeletlari kuplab topildi va topilmokda.

Fransiyada kro-manonda, Komb-kapelg, Orinyak-Shanselyat, Italiyadagi "Dolalar gori", Grimalgdi, Kavilgon, Barmagrans, Bausso, Dextoro gorlaridan Angliyadagi paveliant goridan neontroplarning skeletlari va ularning moddiy-madaniyatiga oid buyumlar kuplab topilgan.

Paleontologik materiallar kadimiy /Afrikada xam neandertallar xam yashaganidan darak beradi. Neandertallarning manzilgoxlari, mexnat kurollari va skeletlari Afrikaning Afalubu-Rumel, Maktax-Al-Arbiy, Nauru Assilyayear, Elentet, Boskon, Siyaikoma, Elizabet, Skledergat, Fish-xuk, Keniya va Tanchaninaning kup joylaridan topilgan odam suyagi xam neandertallarga mansubdir.

Sobiq SSSR da xam "aql idrokli odam" ning suyak va skeletlari va suyaklari Murzak –Koyuba, Fotma – Koba, Kostenka R, Sibirdagi Malta, Buret, Afont gori yakinidagi, Don, Densa daryolari buyidan, Kostyunka kishlogi yakinidan topilgan.

Ishlab chikarish kuchlari o'sa bordi. Kuchlarning rivojlana borishi natijasida ijtimoiy xayotda xam katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar ibtidoiy jamoa tizimining rivojlanishida xususan mexnat kurollari takomillashuvida kuzga tashlandi.

Kadimgi paleolit davrida kurollarning xili juda oz bulib, ular juda xam sodda ishlagan edi.

Lekin kadimgi paleolitning oxiri va sungi tosh asrining boshlariga kelganda manzara butunlay uzgarib, toshdan tarashlagich, kirgich teshgich va nayza uchlari, yer kavlagich kurollari vujudga keldi. Undan tashkari suyakdan va yogochdan bigiz, igna, suyil, nayza uchlari va boshka murakkabrok asboblari uchun moslamalar yasashga erishildi. Balik ovlashning rivojlanishi munosabati bilan teskari tipli garrup kashf kilishi xam ana shu davrga mansubdir.

Mexnat va ov kurollarining mukammalashuvi okibatida ovchilik xo'jaligi va termachilik xam rivojlana bordi.

Bu xol jamiyatda chukur o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi. Tirikchilik, xayot-mamot uchun bo'lgan kurash, xo'jalikni uzluksiz ta'minla oladigan, doimiy va birlashgan ishlab chiqarish uyushmasining zarur ekanligini takozo etdi va uni vujudga keltirdi.

Bunday birlashgan uyushmani ibtidoiy kishilarning tasodifiy yigindisi vujudga keltira olmas edi.

Bu birlashma negizida tabiiy kon-karindoshlik yotar, bu eng dastlabki urug yoki urugchilik jamoasi rivojlanishida sabab bo'ldi. Ibtidoiy poda davrida xam odamlar gala-gala, gurux-gurux bulib yashaganlar. Lekin u guruxlarning soni 20-30 kishidan oshmas, ular ancha bekaror va mustaxkam emas edi.

Urugchilik tizimi davriga kelib esa xar bir urugdagi kishilar uyushmasi 4-5 barobar oshib, urugchidagi odamlar o'zaro mustaxkam birlikga ega bo'lganlar. Urug va urugchilik tizimining kelib chikishi tarixchilikning eng muxim va eng kiyin masalalardan biri, xisoblanadi.

Urug' jamoasi ibtidoiy tudaga nisbatan ancha progressiv ijtimoiy tashkilot xisoblanardi. Ibtidoiy tudaning urug jamoasiga aylanish jarayoni uzok, tarixiy davrni bosib utadi.

Urug bir-biriga kon-karindosh ancha mustaxkam birlikka ega bulgan kishilar majmuasidan iboratdir.

Xulosa

Odamning paydo bo'lishi yer yuzidagi eng katta biologik regressdir. Tirik mavjudotlarning paydo bo'lishida tabiatdagi jonli va jonsiz unsurlarning roli ham beqiyosdir. Hyech narsa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Yerda hayotning paydo bo'lishida kimyoviy va biologik evolyusiya jarayonlari muhim rol o'ynaydi. Hayot paydo bo'lishi haqida bir qancha farazlar bo'lib, ular bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni ilgari suradi. Panspermiya nazariyasi tarafdorlari "Yerda hayot azaldan mavjud va u bir sayyoradan ikkinci sayyoraga ko'chib yuradi" (Arrenius).

Biokimyoviy evolyusiya tarafdorlarning fikricha yerda hayot biokimyoviy jarayonlar natijasida, suvda dastlabki oqsil tarkibli moddalar, protobionlardan paydo bo'lgan (Foks, Aron Kachalskiy, L. Margulis) organizmlar bordan yo'q bo'lmaydi, yo'qdan bor bo'lmaydi. Odam esa evolyusion rivojlanish jarayonida paydo bo'lgan eng ongli va yuksak darajada rivojlangan organizmdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. T.Shark. 1998 y.
2. Kosven M.O. Ibtidoiy jamiyat tarixidan ocherklar. T. 1960 y.
3. Alekseyev V.P. Pershits A.L.Istoriya pervobitnogo obshestva.M.2001 g.
4. Boriskovskiy P.L.Drevneysheye proshloye chelovechestvo M.L.1957g.
5. Semyonov Yu.L.Vozniknoveniye chelovechestvo. M, 1962g.
6. G'afurov A.T. Darvinizm. Toshkent "O'qituvchi" 1992 yil